



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 12-noyabr

235-11-163-Q/25

Farg‘ona tumani hokimligi

**Farg‘ona viloyati hokimining 2025-yil 18-sentabr kungi
“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-sentabrdagi
“Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda mahsulot yetishtirishning
uzluksizligini ta‘minlash va yerdan foydalanish samaradorligini
oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi
PF-172-son Farmoni ijrosini ta‘minlash haqida”gi
474-11-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida.**

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-sentabrdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda mahsulot yetishtirishning uzluksizligini ta‘minlash va yerdan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-172-son Farmoni ijrosini ta‘minlash, shuningdek, qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan oqilona, samarali va uzluksiz foydalanish, bo‘sh turgan yer uchastkalarining o‘z vaqtida hisobga olinishi va realizatsiya qilinishini tashkil qilish hamda viloyat hokimining 2025-yil 18-sentabr kungi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-sentabrdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda mahsulot yetishtirishning uzluksizligini ta‘minlash va yerdan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-172-son Farmoni ijrosini ta‘minlash haqida”gi 474-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1.Viloyat hokimining 2025-yil 18-sentabr kungi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-sentabrdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda mahsulot yetishtirishning uzluksizligini ta‘minlash va yerdan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi

PF-172-son Farmoni ijrosini ta'minlash haqida"gi 474-11-0-Q/25-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

a) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan bo'sh turgan yer maydonlarini qisqa muddatda ijaraga berish, korxonalarining iqtisodiy holatidan qat'iy nazar, barcha turdagi qishloq xo'jaligi yerlariga mos ekin ekish, normativ hosildorlikdan kam bo'lmagan mahsulot yetishtirish va hosilni nobud qilmasdan o'rib-yig'ib olish, yer uchastkalarining ijarachilari (egalari, foydalanuvchilari), ijaraga beruvchilari, agrosanoat majmuasi tarkibidagi davlat organlari va tashkilotlari uchun birinchi navbatdagi ustuvor vazifa ekanligi;

b) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalariga bo'lgan ijara huquqini elektron onlayn auksion savdolari orqali sotishdan tuman (shahar) byudjetiga tushgan mablag'lar tuman (shahar) byudjetining qo'shimcha manbalari hisoblanishi belgilab qo'yilganligi;

v) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer ijarachilariga o'ziga ijaraga berilgan yer uchastkalarining bir qismiga nisbatan ijara shartnomasi bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa shaxsga o'tkazish (qayta ijaraga berish) huquqi berilganligi;

d) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan barcha turdagi yerlarga nisbatan ijara huquqidan boshqa har qanday shakldagi huquq tan olinmasligi va davlat ro'yxatidan o'tkazilmasligi, bunda: davlat organlari, muassasalari va korxonalarining ijara huquqidan boshqa turdagi huquq bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlariga hamda yer fondining boshqa toifalari tarkibidagi qishloq xo'jaligi yerlariga;

2021-yil 1-avgustga qadar yakka tartibda uy-joy qurish huquqi bilan dehqon xo'jaligi va tomorqa xo'jaligini yuritish uchun hamda bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlariga ajratilgan yerlarga nisbatan tatbiq etilmasligi belgilanganligi;

g) viloyat hokimi Qurolli Kuchlar, chegara, ichki ishlar va boshqa qo'shinlarning harbiy qismlari, harbiy o'quv yurtlari, korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining doimiy faoliyati uchun Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga berishga haqli ekanligi belgilab qo'yilganligi;

j) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer egalari va foydalanuvchilariga o'zining yer uchastkalariga bo'lgan egalik qilish va foydalanish huquqlarini 2027-yil 1-yanvarga qadar xalq deputatlari tuman Kengashlari qarori asosida ijara huquqiga o'zgartirish imkoniyati berilganligi;

z) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarga egalik qilish va foydalanish huquqi ijara huquqiga o'tkazilgan hollarda ijara muddati ijara shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ular muassisligidagi yuridik shaxslar uchun 30 yil, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar uchun 25 yil etib belgilanganligi;

i) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi inobatga olinsin.

3. Viloyat hokimining mazkur qarori bilan;

Barcha tuman va shahar hokimlari quyidagilar uchun mas’ul va shaxsan javobgar etib belgilanganligi:

a) tegishli tuman hududida joylashgan barcha turdagi bo‘sh turgan yer uchastkalari o‘n kun muddatda o‘z qaroriga asosan davlat yer kadastrida bo‘sh turgan yer uchastkasi sifatida hisobga olinishini ta’minlash;

b) yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlar bekor qilingan har bir holatda ushbu yer o‘n kun muddatda o‘z qaroriga asosan bo‘sh turgan yer uchastkasi sifatida hisobga olinishini ta’minlash;

v) bo‘sh turgan yer uchastkalarini ular davlat yer kadastrida hisobga olingan kundan boshlab o‘n kun muddatda elektron onlayn auksion savdolariga chiqarish choralarini ko‘rish;

g) yer fondi toifasini o‘zgartirish, yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun eng yaxshi taklifni tanlab olish rejalashtirilgani sababli darhol realizatsiya qilinmaydigan yer maydonlari haqida ushbu yer uchastkasini hisobga olish to‘g‘risidagi o‘z qarorida asoslantirilgan sabablarni ko‘rsatib o‘tish;

d) bo‘sh turgan yer uchastkalari o‘zboshimchalik bilan egallab olinishiga, yer berish tartibini buzgan holda ajratilishiga, boshqa shaxslar tomonidan yerdan xo‘jasizlarcha foydalanilishiga yoki uning yaroqsiz holga tushirilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

e) bo‘sh turgan yer uchastkalarini hisobga olish to‘g‘risidagi qarorlarini rasmiy e’lon qilishi belgilanganligi ijro uchun qabul qilinsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari O. Abduraximov:

a) o‘n kun muddatda bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni hisobga olish yuzasidan qarorlar Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasiga hisobga olish uchun yuborilishini;

b) Kadastr agentligi tuman bo‘limi (V. Esonov) bilan birgalikda tuman hokimligi tasarrufidagi bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning hisobga olinishi va ular to‘g‘risidagi ma’lumotlar real vaqt rejimida “E-ijara” axborot tizimiga yuborilishini;

5. Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (B. Burxonov) va Kadastr agentligi tuman bo‘limi (V. Esonov) bilan birgalikda 2026-yil 1-yanvarga qadar:

a) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan, birinchi navbatda, ikki oy ichida doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilgan yerlardan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turini belgilash ishlarini samarali tashkil etsin va yakunlasin;

b) har oy yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tuman hokimligiga axborot kiritib borsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib tuman hokimining o‘rinbosari O.Abduraximov va Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (B.Burxonov) belgilansin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T